UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING BIZNESPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Rajabov Sardor Baxtiyarovich,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning biznespedagogik texnologiyalari nazariy va qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi xorijiy ilmiy natijalar hamda O‘zbekistondagi o‘quv-metodik va institutsional tajribani umumlashtirish asosida maktab sharoitiga mos pedagogik model va baholash mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. Manbalarning maqsadli tahlili, qiyosiy tahlil, tushunchalarni aniqlashtirish va pedagogik modellashtirish usullari qo‘llanilgan. EntreComp doirasi, maktab o‘quvchilari ishtirokidagi xorijiy tadqiqotlar, mahalliy olimlarning ishlari va maktabning tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorligiga oid hujjatlar o‘rganilgan. Tahlil asosida tadbirkorlik kompetensiyalarining besh komponentli tuzilmasi, olti bosqichli o‘quv sikli, uning blok-sxemasi hamda faoliyat dalillariga tayanuvchi baholash mezonlari taklif etilgan. Modelda ehtiyojni o‘rganish, qiymat taklifini ishlab chiqish, resurslarni rejalashtirish, prototipni sinash va refleksiya o‘zaro bog‘langan. Ilmiy natija o‘quv harakati, uni tasdiqlovchi dalil va keyingi pedagogik qaror o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashtirishdan iborat. Modelning samaradorligiga oid xulosa chiqarish uchun uni mahalliy maktablarda empirik tekshirish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik kompetensiyalari, biznespedagogik texnologiya, umumiy o‘rta ta’lim, texnologiya fani, EntreComp, qiymat yaratish, loyiha asosida o‘qitish, biznes simulyatsiyasi, prototip, mezonli baholash.*

Бизнес-педагогические технологии формирования предпринимателских компетенсий у учащихся общеобразовательных учреждений

Раджабов Сардор Бахтиярович,
независимый научный сотрудник Национального института педагогики образования имени Кари Ниязи

Аннотация: *В статье представлен теоретический и сравнительный анализ бизнес-педагогических технологий формирования предпринимательских компетенций у учащихся общеобразовательных учреждений. Цель исследования заключается в разработке педагогической модели и механизма оценивания, адаптированных к условиям школы, на основе обобщения зарубежных научных результатов, а также учебно-методического и институционального опыта Узбекистана. В исследовании использованы методы целевого анализа источников, сравнительного анализа, уточнения понятий и педагогического моделирования. Изучены рамочная модель EntreComp, зарубежные исследования с участием школьников, труды отечественных учёных, а также документы, касающиеся сотрудничества школ с субъектами предпринимательства. На основе проведённого анализа предложены пятикомпонентная структура предпринимательских компетенций, шестиступенчатый учебный цикл, его блок-схема и кри-*

терии оценивания, основанные на доказательствах практической деятельности. В модели взаимосвязаны изучение потребностей, разработка ценностного предложения, планирование ресурсов, тестирование прототипа и рефлексия. Научный результат заключается в уточнении взаимосвязи между учебным действием, подтверждающими его доказательствами и последующим педагогическим решением. Обоснована необходимость эмпирической проверки модели в местных школах для оценки её эффективности.

Ключевые слова: *предпринимательские компетенции, бизнес-педагогическая технология, общее среднее образование, предмет "Технология", EntreComp, создание ценности, проектное обучение, бизнес-симуляция, прототип, критериальное оценивание.*

Business pedagogical technologies for developing entrepreneurial competencies among general secondary school students

Rajabov Sardor Bakhtiyarovich,
Independent Researcher at the National Institute of Educational Pedagogy named after Qari Niazi

Abstract: *The article theoretically and comparatively analyzes business-pedagogical technologies that develop entrepreneurial competencies in students of general secondary education institutions. The aim of the study is to develop a pedagogical model and an assessment mechanism adapted to school settings by integrating international research findings and the educational, methodological, and institutional experience of Uzbekistan. The research utilizes methods as targeted source analysis, comparative analysis, conceptual clarification, and pedagogical modeling. The article explores the EntreComp framework, international studies involving school students, the works of local scholars, and documents concerning cooperation between schools and business entities. Based on the analysis, the article proposes a five-component structure of entrepreneurial competencies, a six-stage learning cycle, its flowchart, and assessment criteria based on evidence of practical activity. The model integrates needs analysis, the development of a value proposition, resource planning, prototype testing, and reflection. The scientific contribution lies in clarifying the relationship between a learning activity, the evidence demonstrating its outcomes, and the subsequent pedagogical decision. The study substantiates the need for empirical testing of the model in local schools in order to determine its effectiveness.*

Keywords: *entrepreneurial competencies, business-pedagogical technology, general secondary education, Technology subject, EntreComp, value creation, project-based learning, business simulation, prototype, criterion-referenced assessment.*

Maktab o‘quvchisining tadbirkorlik kompetensiyasi kundalik hayotdagi ehtiyojni anglash, unga mos yechim taklif qilish, cheklangan resurslar bilan ishlash va o‘z qarori uchun mas’uliyatni qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Shu bois umumiy o‘rta ta’limda mazkur kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchining iqtisodiy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashni talab etadi. Texnologiya darsida tayyorlangan buyumning sifati, uning kimga kerakligi, qancha resurs sarflangani va foydalanuvchi fikri asosida qanday takomillashtirilgani birgalikda tahlil qilinganda tadbirkorlikka xos o‘quv vaziyati yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–53-son qarori maktab o‘quvchilarini zamonaviy kasblarga tayyorlashning institutsional asoslaridan birini belgilaydi [1]. Ushbu yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarorida maktab-

lar va tadbirkorlik subyektlari hamkorligi, kasb to‘garaklari, ustoz biriktirish hamda amaliy o‘qitish masalalari tartibga solingan [2]. Bu imkoniyatlardan pedagogik maqsadda foydalanish uchun kasbni o‘rganish jarayonini kompetensiya, o‘quv topshirig‘i va baholash dalili bilan bog‘lash zarur.

Maqolada maktabdagi amaliy mehnat, iqtisodiy hisob-kitob va tashqi hamkor bilan muloqotni qanday o‘quv sikliga birlashtirish hamda mazkur siklda o‘quvchining individual o‘sishini qaysi dalillar orqali baholash lozim masalalari muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Tayyor mahsulot, ko‘rgazma yoki biznes-rejaning o‘zi o‘quvchi ehtiyojni mustaqil o‘rganganini, hisob-kitobni tushunganini va asoslangan qaror qabul qilganini to‘liq ko‘rsatmaydi. Shu sababli faoliyat jarayonini ham baholash predmetiga aylantirish talab etiladi.

Tadqiqotning maqsadi xorijiy ilmiy natijalar va mahalliy tajriba tahlili asosida umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning biznespedagogik modeli hamda uni baholash mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun tadbirkorlik kompetensiyalarining maktab ta’limidagi mazmuni aniqlashtirildi, xorijiy tadqiqotlarni mahalliy sharoitga ko‘chirish chegaralari tahlil qilindi va o‘quv harakati bilan baholash dalillarini muvofiqlashtiruvchi model taklif etildi. Model asosan 7–11-sinflar uchun mo‘ljallangan; kichik yoshdagi o‘quvchilarga oid natijalar esa rivojlanish bosqichlarini tushunish uchun qiyosiy manba sifatida ishlatildi.

M.Bachigalupo, P.Kampilis, I.Punie va L.Van den Brande ishlab chiqqan EntreComp doirasi tadbirkorlikni g‘oya va imkoniyatlarni boshqalar uchun qiymatga aylantirish qobiliyati bilan bog‘laydi. Unda “G‘oyalar va imkoniyatlar”, “Resurslar”, “Harakatga o‘tish” sohalariga birlashtirilgan 15 ta kompetensiya va sakkiz darajali rivojlanish mantig‘i belgilangan [3]. Mazkur doira maktab uchun tayyor dars dasturi vazifasini bajarmaydi. U o‘quv natijalarini tanlash va ularni yoshga mos topshiriqlarga aylantirish uchun nazariy asos beradi. Ushbu maqolada taklif etiladigan besh komponentli tuzilma EntreCompning rasmiy tasnifi emas, maktab sharoiti uchun mualliflik umumlashtirishidir.

M.Lakeusning OECD uchun tayyorlangan tahlilida tadbirkorlik haqida o‘qitish, tadbirkorlikka tayyorlash va tadbirkorlik faoliyati orqali o‘qitish yondashuvlari farqlanadi [11]. Birinchi yondashuv tushuncha va iqtisodiy bilimlarga, ikkinchisi biznes faoliyatiga tayyorgarlikka, uchinchisi esa amaliy vazifani bajarish orqali o‘rganishga yo‘naltiriladi. Maktabda ushbu yondashuvlarni o‘quvchining yoshi va tayyorgarligiga muvofiq birlashtirish maqsadga muvofiq. Masalan, xarajat tushunchasini qisqa tushuntirishdan keyin o‘quvchi o‘z prototipi uchun resurslar ro‘yxatini tuzadi va hisobining asosini sharhlaydi.

X.Nek va P.Grin tadbirkorlikni o‘qitishda amal qilish, sinash va refleksiyaga tayanuvchi metodik yondashuvni asoslaydi. Ular muhokama qilgan vositalar qatoriga simulyatsiyalar, dizayn asosida fikrlash va refleksiv amaliyot kiradi [16]. Mazkur g‘oyadan maktab uchun kelib chiqadigan metodik xulosa shuki, o‘quvchiga faqat biznes-reja shaklini to‘ldirishni topshirish yetarli emas. U tanlagan yechimini tekshirishi va qaysi dalil uning dastlabki fikrini o‘zgartirganini tushuntirishi kerak. Bu maqolada “biznespedagogik texnologiya” atamasi ana shunday faoliyatni rejalashtirish va boshqarishning operatsional tushunchasi sifatida qo‘llaniladi.

G.Nabi va hammualliflar oliy ta’limdagi tadbirkorlik ta’limiga oid 159 ta maqolani tahlil qilib, ko‘p tadqiqotlarda qisqa muddatli subyektiv ko‘rsatkichlarga ustuvorlik berilishi va sinovdan o‘tkazilgan pedagogik jarayon yetarlicha tavsiflanmasligini qayd etgan [15]. Ularning xulosasini maktab yoshiga bevosita ta’sir dalili sifatida qo‘llab bo‘lmaydi. Biroq, ushbu metodologik muammo maktab tadqiqotini loyi-

halashda ham ahamiyatli: “tadbirkor bo‘lishni xohlayman” degan javob amaliy kompetensiyani o‘lchashning o‘rnini bosa olmaydi.

E.Branka, Y.Vanderstraten, H.Slabbink va I.M.R.Maesning 2025-yilgi tizimli sharhi o‘z samaradorligiga ishonch, kreativlik, tavakkalga munosabat va yangilik kiritishni ta’lim usullari bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Mualliflar an’anaviy tushuntirish, faol va tajribaviy o‘qitishning turli kompetensiyalarga ta’siri farqlanishini ko‘rsatadi [8]. Bu natijadan barcha vaziyatlarda bitta metod ustun, degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, nazariy tushuntirish, amaliyot va tahlilni o‘quv natijasiga muvofiq birlashtirish uchun asos hosil bo‘ladi.

Mahalliy olimlar N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov va O.A.Qo‘ysinovning mehnat ta’limini o‘qitish hamda kasb tanlashga yo‘llashga bag‘ishlangan darsligi ushbu ikki yo‘nalishni umumiy metodik maydonda ko‘rib chiqadi [14]. U.G‘afurov va Q.Sharipovning 11-sinf uchun “Tadbirkorlik asoslari” darsligida biznes-reja ishlab chiqish, xarajat va bozorga oid masalalar o‘quv mazmuniga kiritilgan [8]. Mazkur manbalarni birgalikda o‘qish texnologiya darsidagi mahsulot yaratish jarayonini iqtisodiy asoslash vazifalari bilan bog‘lash imkonini ko‘rsatadi.

A.P.Kurmanovning tadqiqotida o‘quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishda o‘qituvchining metodik tayyorgarligini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [10].

O‘rganish jarayonida pedagogik yondashuv, tadqiqot dizayni, o‘lchangan natija va natijani O‘zbekiston maktabiga ko‘chirish chegarasi ajratildi. Keyin konseptual sintez orqali kompetensiya komponentlari belgilandi va har bir komponentga kuzatiladigan o‘quv harakati hamda baholash dalili moslashtirildi.

Kopengagen biznes maktabi repozitoriysida keltirilgan K.Moberg tadqiqoti Daniyadagi 801 nafar 9-sinf va 576 nafar 10-sinf o‘quvchisi so‘rovlariga asoslangan. Tadbirkorlikka tayyorlashga yo‘naltirilgan mazmun tadbirkorlik niyati bilan ijobiy, maktabga jalb etilganlik bilan esa salbiy bog‘langan. Tadbirkorlik faoliyati orqali o‘qitishda teskari yo‘nalishdagi bog‘lanishlar qayd etilgan [13]. Demak, tadbirkorlik bo‘lgan qiziqishning oshishini ta’limga qiziqish yoki amaliy kompetensiya oshishi bilan bir xil natija deb qabul qilish to‘g‘ri emas.

N.Elert, F.V.Andersson va K.Venberg Shvesiyadagi Junior Achievement Company Program ishtirokchilari bilan o‘xshash xususiyatlarga ega taqqoslash guruhini bitiruvdan keyin 16 yilgacha kuzatgan. Tadqiqotda dasturda qatnashish keyinchalik korxona ochish ehtimoli va tadbirkorlik daromadi bilan ijobiy bog‘langan, korxonaning saqlanib qolishi bo‘yicha esa ta’sir aniqlanmagan [8]. Ishtirokchilarni moslashtirish usuli kuzatilgan farqlarni kamaytiradi, ammo barcha yashirin omillarni istisno qilmaydi. Shu sababli natija uzoq muddatli kuzatuvning ahamiyatini ko‘rsatadi, har bir maktab loyihasi kelgusi biznes muvaffaqiyatini kafolatlaydi, degan xulosaga asos bo‘lmaydi.

Chalmers texnologiya universiteti tadqiqotchisi M. Lakeus 35 ta ta’lim maydonida g‘oya va buyum yaratish, boshqalar uchun qiymat yaratish hamda korxona tashkil etishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qiyoslagan. 1048 ishtirokchidan olingan 10 953 ta qisqa so‘rov javobi va 291 ta intervyu tahlilida boshqalar uchun qiymat yaratish yondashuvi o‘rganilgan natijalar bo‘yicha kuchliroq ko‘rinish bergan [12]. Mazkur tadqiqot randomlashtirilgan eksperiment emas va bir xil yosh guruhi bilan cheklanmagan.

Qiyosiy tahlildan uchta metodik qaror kelib chiqadi. Avvalo, bilim, faoliyat va motivatsiya uchun alohida dalillar yig‘ish kerak. Keyin, o‘quvchining mahsulotni yaxshilashga olib kelgan harakatini qayd etish lozim. Nihoyat, sinfdagi qisqa o‘quv sikli natijasini keyingi iqtisodiy faoliyatga tenglashtirmaslik zarur. Ushbu qarorlar taklif etilayotgan modelning mazmuni va baholash mexanizmiga asos bo‘ldi.

1-jadval.

Xorijiy tadqiqotlar va ularni maktab sharoitida qo‘llash chegaralari


Tadqiqot va manba	Dizayn va qamrov	Asosiy natija	Qo‘llash chegarasi
Huber va boshqalar	Niderlandiya; randomlashtirilgan sinov; 63 boshlang‘ich maktab, 2751 o‘quvchi	Nokognitiv ko‘nikmalarda ijobiy ta’sir; bilimda ta’sir aniqlanmagan	Yosh bosqichi farqli; natijani yuqori sinfga bevosita ko‘chirib bo‘lmaydi
Moberg	Daniya; 9–10-sinflar; ikki so‘rovda 801 va 576 o‘quvchi	O‘qitish yondashuvlarining niyat va maktabga jalb etilganlik bilan bog‘lanishi farqlangan	So‘rov natijasi sababiy ta’sirni to‘liq belgilamaydi
Elert va boshqalar	Shvesiya; moslashtirilgan taqqoslash guruhi; 16 yilgacha kuzatuv	Korxona ochish va daromad bo‘yicha ijobiy natija; korxona saqlanishida ta’sir aniqlanmagan	Kuzatuv dizaynida yashirin omillar to‘liq istisno qilinmaydi
Lakeus	35 ta’lim maydoni; 1048 ishtirokchi; qisqa so‘rovlar va intervyular	Boshqalar uchun qiymat yaratish yondashuvida kuchliroq natijalar qayd etilgan	Randomlashtirilmagan; ta’lim kontekstlari turlicha
Branka va boshqalar	2025 yilgi tizimli adabiyotlar sharhi	O‘qitish strategiyalarining turli tadbirkorlik sifatlariga ta’siri farqlanadi	Mahalliy maktab uchun alohida yosh va kontekst tekshiruvi zarur

O‘zbekiston tajribasida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun o‘zaro bog‘lash mumkin bo‘lgan o‘quv-metodik, hunarmandchilik va institutsional resurslar mavjud. “Tadbirkorlik asoslari” darsligi iqtisodiy tushunchalar va hisob-kitoblar uchun mazmun beradi [8]. Texnologiya fani va kasbga yo‘llashga oid metodik ishlar esa buyum yaratishni ta’limiy vazifa sifatida ko‘rish uchun zamin hosil qiladi [14]. Maqola doirasida ushbu resurslar asosida hunarmandchilik buyumi, o‘quv jihozi, raqamli xizmat prototipi yoki resurs tejovchi yechimni bir xil pedagogik mantiqda loyihalash taklif etiladi.

Bunda an’anaviy hunarmandchilikning o‘quv qiymati buyum tayyorlash texnikasini o‘zlashtirish bilan kengayadi. Masalan, naqshli mato xaltacha loyihasida o‘quvchi foydalanish maqsadini aniqlashi, material sarfini hisoblashi, mustahkamlikni tekshirishi va foydalanuvchining taklifini hisobga olishi mumkin. Bu maqoladagi didaktik misol bo‘lib, muayyan maktabda qayd etilgan eksperiment natijasi sifatida taqdim etilmaydi. Topshiriqlarni o‘quvchilarning jinsiga qarab taqsimlash o‘rniga, har bir ishtirokchining loyihalash, hisoblash va taqdim etish tajribasini almashlab borish nazarda tutiladi.

Biznespedagogik texnologiyaning mazmuni va tuzilmasi

Ushbu tadqiqotda biznespedagogik texnologiya o‘quvchining real yoki modellashtirilgan ehtiyojga javoban qiymat yaratish faoliyatini aniq maqsad, bosqichlar, vazifalar, resurslar va baholash dalillari asosida tashkil etish tizimi



1-rasm. Tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning biznespedagogik modeli. O‘zbekiston tajribasi va uni rivojlantirish imkoniyatlari

sifatida ta’riflanadi. “Texnologiya” maqomi muayyan metodning nomi bilan belgilanmaydi. O‘qituvchi kutilayotgan natijani, o‘quvchi harakatini, uning dalilini va natijaga qarab qabul qilinadigan keyingi qarorni oldindan ko‘rsata olganda takror qo‘llash mumkin bo‘lgan pedagogik jarayon hosil bo‘ladi.

Modelda tadbirkorlik kompetensiyalarining besh komponenti ajratildi. Imkoniyatni anglash komponenti ehtiyojni kuzatish va dalil bilan ifodalashni qamrab oladi. Loyihalash komponenti muqobil yechimlar yaratish, prototip tayyorlash va takomillashtirishda namoyon bo‘ladi.

O‘quv faoliyati bosqichma-bosqich murakkablashtiriladi. 7–8-sinflarda yaqin muhitdagi sodda ehtiyoj, tayyor resurslar va qisqa hisob-kitoblardan foydalanish maqbul. 9-sinfda ikki yoki uch yechimni qiyoslash, prototipga fikr olish va tanlovni dalillash vazifalari kengaytiriladi. 10–11-sinflarda tannarx va narx farqi, cheklangan budjet, talab o‘zgarishi hamda xizmatni tashkil etish kabi masalalar kiritilishi mumkin. Ushbu ketma-ketlik milliy standart sifatida emas, o‘quvchilar tayyorgarligiga moslashtiriladigan metodik tavsiya sifatida berilmoqda.

2-jadval.

Biznespedagogik usullar va baholash dalillarining muvofiqligi

Usul	O‘quvchining asosiy harakati	Yig‘iladigan dalil	Tekshiriladigan jihat
Ehtiyojga asoslangan loyiha	Foydalanuvchi muammosini o‘rganib, qiymat taklifini ishlab chiqadi	Kuzatuv yoki suhbat qaydi, ehtiyoj xulosasi	Yechimning aniqlangan ehtiyojga mosligi
Dizayn va prototiplash	Yechimlarni qiyoslaydi, namuna tayyorlab, sinovdan keyin o‘zgartiradi	Eskizlar, prototip, sinov qaydi	Tanlov va o‘zgartishning asoslanganligi
Biznes keys va simulyatsiya	Budjet, resurs yoki talab cheklovi sharoitida qaror qabul qiladi	Smeta, hisob, muqobil ssenariy	Hisob mantig‘i va taxminlarni anglashi
Hamkorlikdagi vazifa	Rollarni kelishadi va shaxsiy vazifasini bajaradi	Vazifalar jurnali, kuzatuv, shaxsiy izoh	Shaxsiy hissa va kelishuvga rioya
Refleksiv himoya	Dalillarni sharhlab, usulni yangi vaziyatda qo‘llaydi	Individual himoya va yangi topshiriq	Mustaqil asoslash va ko‘chira olish

2-jadvaldagi usullar alohida mashqlar to‘plami bo‘lib qolmasligi uchun ular umumiy loyihaga birlashtiriladi.

Olti bosqichli o‘quv sikli va qayta aloqa

Birinchi bosqichda o‘quvchining dastlabki tayyorgarligi aniqlanadi va maqsad kelishiladi. Qisqa amaliy topshiriq orqali ehtiyojni tushunish, oddiy hisoblash va o‘z fikrini asoslash qobiliyati kuzatiladi. O‘qituvchi natijaga qarab tayanch namuna, qo‘shimcha savol yoki mustaqil ish darajasini tanlaydi. Boshlang‘ich diagnostika o‘quvchini saralash uchun emas, unga kerakli ko‘makni belgilash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi bosqichda foydalanuvchi ehtiyoji o‘rganiladi. Kuzatuv, qisqa suhbat yoki muammo xaritasi orqali “kim uchun, qanday qiyinchilik va qaysi sharoitda?” savollariga javob yig‘iladi. Kichik o‘quv loyihasida kamida besh nafar foydalanuvchi bilan suhbatlashish topshirilishi mumkin; bu son statistik reprezentativlikni emas, bir fikr bilan cheklanib qolmaslikni ta’minlash uchun tavsiya etiladi. Yig‘ilgan ma’lumotdan umumiy ehtiyoj va alohida xohishlar ajratiladi.

Uchinchi bosqichda qiymat taklifi ishlab chiqiladi. O‘quvchi yechimi kimga qanday foyda berishini bayon qiladi, kamida ikki variantni solishtiradi va tanlov mezonini ko‘rsatadi. Qiymat qulaylik, vaqtni tejash, foydalanish imkoniyatini kengaytirish yoki material sarfini kamaytirishda ifodalanishi mumkin. To‘rtinchi bosqichda shu yechim uchun material, mehnat vaqti va boshqa zarur resurslar rejalashtiriladi. O‘qituvchi hisobning mantig‘ini tekshiradi, o‘quvchi esa ma’lumot bilan taxminni alohida belgilaydi.

Beshinchi bosqich prototip tayyorlash va sinovdan iborat. Texnologiya darsida buyumning dastlabki namunasi, informatikada raqamli maket, xizmat loyihasida esa jarayon ssenariysi yaratilishi mumkin. Sinov mezonlari ish boshlanishidan oldin belgilanadi. Agar prototip mezonga javob bermasa, o‘quvchi yechim yoki resurs rejasini qayta ko‘rib chiqadi. Ehtiyojning o‘zi noto‘g‘ri tushunilgani aniqlansa, ikkinchi

bosqichga qaytiladi. Shu tariqa qayta ishlash muvaffaqiyatsizlik belgisi emas, tekshiriladigan o‘quv harakati sifatida qayd etiladi.

Oltinchi bosqichda natija dalillar asosida baholanadi va o‘rganilgan usulning yangi vaziyatga ko‘chirilishi tekshiriladi. O‘quvchi qaysi ma’lumotga tayanganini, nimani o‘zgartirganini va o‘zining aniq hissasini tushuntiradi. Yakunda dastlabki loyihadan farqli qisqa vazifa beriladi. Masalan, buyum tayyorlagan o‘quvchiga xizmat ko‘rsatish vaziyatida ehtiyoj va xarajatni aniqlash topshiriladi. Bu tekshiruv tayyor matnni yodlash bilan mustaqil qo‘llashni ajratishga yordam beradi. Bosqichlarning o‘zaro bog‘lanishi 1-rasmda berilgan.

Modelni texnologiya darsida qo‘llash namunasi

Modelni “Qayta foydalaniladigan mato xaltacha” o‘quv loyihasida qo‘llash mumkin. Dastlab o‘quvchilar xaltachaning kimga va qaysi maqsadda kerakligini o‘rganadi. Keyin o‘lcham, mustahkamlik va qulaylikka oid talablarni belgilaydi, ikki konstruksiyani taqqoslaydi hamda bitta namuna tayyorlaydi. Matematikada material sarfi, texnologiyada tikish va sinov, ona tilida esa foydalanuvchi uchun qisqa yo‘riqnoma yozish vazifalari bog‘lanadi. Bu misol maxsus eksperiment natijasi emas, taklif etilgan texnologiyaning o‘quv ssenariysidir.

Hisoblashni tushuntirish uchun shartli ma’lumotlar olinadi: bitta xaltachaga material 12 000 so‘m, ip va bezak 2 000 so‘m, boshqa ajratilgan xarajatlar 1 000 so‘m bo‘lsa, hisobga olingan xarajat jami 15 000 so‘mni tashkil etadi. Shartli narx 20 000 so‘m qilib olinganda farq 5 000 so‘m bo‘ladi. Barcha xarajatlar, jumladan mehnat va boshqa tegishli to‘lovlar hisobga olinmaguncha bu farqni sof foyda deb atash mumkin emas. Ushbu raqamlar amaldagi bozor narxi haqidagi ma’lumot emas. O‘quvchi hisobda qaysi xarajat borligi va qaysisi yo‘qligini tushuntirishi baholanadi.

Sinovda foydalanuvchilar dastak uzunligi yoki ichki cho‘ntakka oid taklif bersa, guruh mahsulotga o‘zgartish kiritishi, uning qo‘shimcha sarfini hisoblashi va qarorini asoslashi kerak. O‘zgartishni qabul qilmaslik ham asosli qaror bo‘lishi mumkin, agar o‘quvchi foydalanish maqsadi, resurs cheklovi va sinov natijasiga tayansa. Shu tarzda baholash o‘qituvchiga yoqqan dizaynni tanlashdan ko‘ra, yechimni dalillash sifatiga yo‘naltiriladi.

Dalillarga asoslangan baholash mexanizmi

Baholashning asosiy birligi “o‘quvchi bajargan harakat va uni tasdiqlovchi dalil” juftligidir. Dalillar portfoliosiga ehtiyoj qaydi, yechim eskizi, smeta, prototip sinovi va individual refleksiya kiritiladi. Barcha materialning raqamli bo‘lishi shart emas; qog‘ozdagi yozuv, foto, og‘zaki himoya qaydi va o‘qituvchi kuzatuvi ham qabul qilinadi. Guruh mahsulotiga qo‘yilgan baho har bir a’zoga avtomatik berilmaydi. Shaxsiy hissa vazifalar jurnali, kuzatuv va qisqa individual savollar bilan tekshiriladi.

Har bir komponent uchun 0-3 balllik umumiy mantiq taklif etiladi. 0 ballda harakat bajarilmagan yoki taqdim etilgan dalil uni tasdiqlamaydi. 1 ballda o‘quvchi harakatni tayanch namuna yoki bevosita yordam bilan bajaradi, asoslash to‘liq emas. 2 ballda harakat mustaqil bajariladi va tegishli dalil bilan asoslanadi. 3 ballda o‘quvchi dalillarni tanqidiy tekshirib, yechimni takomillashtiradi hamda usulni o‘zgargan vaziyatda qo‘llay oladi. Komponentlarga xos kuzatish obyektlari 3-jadvalda keltirilgan.

Besh komponent bo‘yicha umumiy ball 0-15 oralig‘ida bo‘ladi. Dastlabki metodik talqin uchun 0-3 ball boshlang‘ich, 4-7 ball tayanch, 8-11 ball mustaqil amaliy, 12-15 ball esa takomillashtiruvchi daraja sifatida taklif etiladi. Eng yuqori daraja uchun har bir komponentdan kamida 2 ball olish sharti qo‘yiladi.

3-jadval.

Tadbirkorlik kompetensiyalarini baholash mezonlari va dalillari

Komponent	Kuzatiladigan harakat	Tekshirish dalili	Asosiy baholash savoli
Imkoniyatni anglash	Foydalanuvchini va uning ehtiyojini ajratadi	Kuzatuv qaydi, ehtiyoj xulosasi	Ehtiyoj haqidagi fikr qaysi ma'lumotga tayangan?
Loyihalash	Muqobil yechimni tanlaydi va prototipni qayta ishlaydi	Ikki eskiz, sinov, o'zgartish qaydi	Tanlov va takomillashtirishning dalili bormi?
Resurs-iqtisodiy	Sarfni hisoblaydi, taxminni ma'lumotdan ajratadi	Resurslar ro'yxati, smeta va izoh	Hisobda nimalar qamrab olingan va nimalar yetishmaydi?
Hamkorlik va tashabbus	Kelishilgan vazifani bajaradi, yechimga hissa qo'shadi	Jurnal, kuzatuv, individual javob	O'quvchining shaxsiy hissasi nimada ko'rinadi?
Mas'uliyat va refleksiya	Cheklovni anglaydi, xatoni tahlil qiladi, usulni ko'chiradi	Refleksiya, himoya, yangi vaziyat topshirig'i	O'quvchi nimani, nima uchun va qanday o'zgartirgan?

Aks holda natija umumiy ball bilan birga komponentlar profili orqali talqin qilinadi va yuqori daraja belgilanmaydi. Bu chegaralar standartlashtirilgan me'yor emas; ularni pilot natijalari va ekspert bahosi asosida qayta ko'rib chiqish lozim.

Baholashdagi subyektivlikni kamaytirish uchun o'qituvchilar bir nechta namunaviy ishni birgalikda muhokama qilishi, mezonlarni ish boshlanishidan oldin o'quvchilarga tushuntirishi va tanlangan ishlar qismini ikki baholovchi orqali tekshirishi tavsiya etiladi. Dastlabki va yakuniy topshiriqlar murakkabligi jihatidan tenglashtiriladi, ammo aynan bir xil mazmunni takrorlamaydi. O'quvchining o'zini baholashi refleksiya uchun qo'llaniladi, kompetensiya o'sishining yagona ko'rsatkichi sifatida olinmaydi.

Pedagogik shartlar va empirik tekshirish yo'nalishlari

Modelni joriy etishda o'qituvchi amaliy vazifani loyihalash, sodda iqtisodiy hisobni sharhlash, tashqi hamkor bilan ishlash va dalillarni baholashga tayyor bo'lishi kerak. Shuning uchun metodik tayyorgarlikda tayyor biznes-reja namunalarini ko'paytirishdan tashqari, foydalanuvchi bilan suhbat, mezon tuzish va o'quvchi ishini birgalikda baholash mashqlari o'tkazilishi maqbul. Resurs cheklangan maktabda ham qog'oz prototipi, qayta ishlatiladigan material va xizmat ssenariysi orqali siklni tashkil etish mumkin. Loyihaning qimmatligi o'quv natijasining o'lchovi sifatida qabul qilinmaydi.

O'quv loyihasida ishtirokchilarning teng imkoniyati va yoshiga mos vazifalar ta'minlanadi. Oiladan mablag' olib kelish yoki mahsulot sotish kompetensiyani namoyish qilish shartiga aylantirilmaydi. Suhbat ma'lumotlarini yig'ishda shaxsiy axborotga ehtiyoj cheklanadi, amaliy ishda esa xavfsizlik talablari o'quv vazifasining tarkibiga kiritiladi. Tashqi hamkor bilan ishlash shakli maktabning belgilangan tartiblariga muvofiq tashkil etiladi. Modelning o'quv natijasi foyda miqdoriga emas, asoslangan qaror va bajarilgan harakatga bog'lanadi.

Keyingi empirik tekshiruvda olti bosqichli siklni faqat tayyor mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar bilan taqqoslash taklif etiladi. Imkon bo‘lsa, sinflar darajasida tasodifiy taqsimlash qo‘llaniladi; buning imkoni bo‘lmaganda boshlang‘ich tayyorgarlik va maktab sharoiti bo‘yicha o‘xshash guruhlar tanlanadi. Guruhlarda o‘quv vaqti va resurslar hajmini yaqinlashtirish, mashg‘ulotlar amalda qanday o‘tkazilganini qayd etish va yakuniy ishlarni baholashda guruh haqidagi ma’lumotni yashirish muhim. Ishtirokchilar soni kutilgan ta’sir va sinflar ichidagi o‘xshashlikni hisobga olgan holda oldindan rejalashtiriladi.

Tekshiriladigan asosiy faraz shundan iboratki, ehtiyojni o‘rganish va sinovdan keyin yechimni qayta ishlashni majburiy o‘quv harakatiga aylantirish o‘quvchilarning dalil bilan qaror qabul qilishini yaxshilashi mumkin. Qo‘shimcha farazlar individual portfolioning shaxsiy hissani aniqlashga yordam berishi va tashqi foydalanuvchi fikrining loyiha mazmunini takomillashtirishga ta’siri bilan bog‘liq. Natijalarda o‘rtacha balllardan tashqari komponentlar bo‘yicha o‘zgarish, baholovchilar kelishuvi va baholashdagi noaniqlik ko‘rsatilishi kerak. Keyingi kechiktirilgan topshiriq orqali o‘zlashtirilgan usulning saqlanishi tekshiriladi. Bu farazlar hozirgi maqolada tasdiqlangan natijalar sifatida taqdim etilmaydi.

Tadqiqotning cheklovlari manbalarning maqsadli tanlanganligi, tadqiqotlardagi yosh va natija ko‘rsatkichlarining turlichaligi hamda mahalliy model bo‘yicha birlamchi ma’lumot yig‘ilmaganligi bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur ish texnologiyaning samaradorligini miqdoriy isbotlamaydi. Uning hozirgi natijasi amaliyotda sinash mumkin bo‘lgan jarayon, kuzatish obyektlari va baholash qoidalarini aniq belgilashdan iborat. Bunday aniqlashtirish keyingi eksperimentda qaysi pedagogik harakat qaysi natija bilan bog‘langanini tekshirish imkonini beradi.

Umumiy o‘rta ta’limda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishni ehtiyojni o‘rganish, qiymatli yechim yaratish, resurslarni asoslash va natijani qayta ko‘rib chiqishdan iborat faoliyat sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Xorijiy tadqiqotlar bilim, nokognitiv ko‘nikmalar, tadbirkorlik niyati va keyingi iqtisodiy natijalar bir xil o‘zgarmasligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ta’lim natijasini bitta so‘rov yoki tayyor mahsulot bilan ifodalash yetarli emas [6].

Mahalliy o‘quv-metodik manbalar, texnologiya ta’limi va maktabning tadbirkorlar bilan hamkorlik imkoniyatlari biznespedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish uchun zamin beradi [14]. Maqolada ushbu zamin besh komponentli tuzilma va olti bosqichli o‘quv sikli orqali birlashtirildi. Taklifning ilmiy-metodik hissasi har bir bosqichdagi o‘quv harakatini baholash dalili va keyingi pedagogik qaror bilan bog‘lashda namoyon bo‘ladi. Prototipning talabga javob bermasligi yechim yoki ehtiyojni qayta tahlil qilish uchun asos sifatida modelga kiritildi.

Amaliy qo‘llash uchun fanlararo loyihalar banki, o‘qituvchilarning birgalikda baholash mashqlari va o‘quvchining individual dalillar portfoliosini joriy etish tavsiya qilinadi. Kelgusi tadqiqotda modelni turli resurs sharoitidagi maktablarda taqqoslash, baholash mezonlarining ishonchliligini tekshirish va daraja chegaralarini empirik asoslash zarur. Shu tekshiruvlardan keyingina uning kompetensiyalar o‘sishiga ta’siri haqida dalillangan xulosa chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2024-yil 2-fevraldagi PQ–53-son qaror. Murojaat sanasi: 20.10.2026. LexUZ

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida. 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qaror. Murojaat sanasi: 20.10.2026. LexUZ

3. Bacigalupo M., Kampylis P., Punie Y., Van den Brande L. EntreComp: The Entrepreneurship Competence Framework. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2016. EUR 27939 EN. DOI: 10.2791/593884

4. Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi. Toshkent shahridagi 16-maktab o'quvchilarining Biznes va tadbirkorlik oliy maktabiga tanishtiruv tashrifi bo'lib o'tdi. 30.01.2026. Murojaat sanasi: 20.10.2026. Manba

5. Branca E., Vanderstraeten J., Slabbinck H., Maes I. M. R. The impact of entrepreneurial education on key entrepreneurial competencies: A systematic review of learning strategies and tools // The International Journal of Management Education. 2025. Vol. 23, No. 2. Article 101144. DOI: 10.1016/j.ijme.2025.101144

6. Elert N., Andersson F. W., Wennberg K. The impact of entrepreneurship education in high school on long-term entrepreneurial performance // Journal of Economic Behavior & Organization. 2015. Vol. 111. P. 209–223. DOI: 10.1016/j.jebo.2014.12.020

7. European Commission/EACEA/Eurydice. Entrepreneurship Education at School in Europe. Eurydice Report. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2016. DOI: 10.2797/731298

8. G'afurov U., Sharipov Q. Tadbirkorlik asoslari: o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2018. 144 b. Elektron nusxa

9. Huber L. R., Sloof R., Van Praag M. The effect of early entrepreneurship education: Evidence from a field experiment // European Economic Review. 2014. Vol. 72. P. 76–97. DOI: 10.1016/j.euroecorev.2014.09.002

10. Kurmanov A. P. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida kreativ yondashuvlar asosida tadbirkorlik kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari // Fan va jamiyat. 2025. № 5-2. B. 47–49. Maqola

11. Lackéus M. Entrepreneurship in Education: What, Why, When, How. Entrepreneurship360 Background Paper. Paris: OECD, 2015. Hisobot

12. Lackéus M. Comparing the impact of three different experiential approaches to entrepreneurship in education // International Journal of Entrepreneurial Behavior & Research. 2020. Vol. 26, No. 5. P. 937–971. DOI: 10.1108/IJEBR-04-2018-0236

13. Moberg K. Two approaches to entrepreneurship education: The different effects of education for and through entrepreneurship at the lower secondary level // The International Journal of Management Education. 2014. Vol. 12, No. 3. P. 512–528. DOI: 10.1016/j.ijme.2014.05.002

14. Muslimov N. A., Sharipov Sh. S., Qo'ysinov O. A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash: darslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. 456 b. Bibliografik yozuv

15. Nabi G., Liñán F., Fayolle A., Krueger N., Walmsley A. The impact of entrepreneurship education in higher education: A systematic review and research agenda // Academy of Management Learning & Education. 2017. Vol. 16, No. 2. P. 277–299. DOI: 10.5465/amle.2015.0026

16. Neck H. M., Greene P. G. Entrepreneurship education: Known worlds and new frontiers // Journal of Small Business Management. 2011. Vol. 49, No. 1. P. 55–70. DOI: 10.1111/j.1540-627X.2010.00314.x